

UDK: 612.617.2/614.824

IS GAZI BILAN SURUNKALI ZAHARLANISHDAN KEYIN MOYAKLARDA KUZATILADIGAN MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Hojiyev Sharif Shukurovich
ORCID: 0009-0007-1624-7293

Dolzarbli.Uglerod oksidi (CO) bilan surunkali zaharlanish zamonaviy ekologik va kasbiy muammolardan biri bo'lib, organizmda umumiy gipoksiya va oksidlovchi stress chaqiradi. Erkak jinsiy tizimi, xususan moyaklar, yuqori metabolik faolligi va murakkab hujayraviy tuzilishi sababli toksik omillarga nihoyatda sezgir hisoblanadi. CO ning moyaklar morfologiyasiga ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi.Surunkali uglerod oksidi ta'siridan keyin bir oylik oq erkak kalamushlar moyaklarida yuzaga keladigan gistomorfologik va morfometrik o'zgarishlarni aniqlash.

Materiallar va usullar.Tajriba obyektlari sifatida bir oylik oq erkak kalamushlar ishlatildi. Tajriba guruhiga past konsentratsiyadagi CO bilan surunkali ta'sir ko'rsatildi. Moyaklar 10% neytral formalinda fiksatsiya qilinib, parafin bloklarga joylandi. 5–7 mkm qalinlikdagi kesmalar gematoksilin-eozin bilan bo'yalib, yorug'lik mikroskopida ($\times 20$, $\times 40$) o'rganildi. Raqamli morfometriya yordamida urug' kanallari va hujayra tarkibi tahlil qilindi.

Natijalar.Gistologik tekshiruvlarda urug' kanallarida yadro piknozi, sitoplazma vakuolizatsiyasi va biriktiruvchi to'qima fibrozining boshlang'ich belgilari aniqlandi. Morfometrik tahlil quyidagi hujayra nisbatlarini ko'rsatdi: spermatogoniyalar — $52,7 \pm 1,1\%$, spermatotsitlar — $24,3 \pm 1,2\%$, spermatidlar — $6,7 \pm 0,4\%$, spermatozoidlar — $11,4 \pm 0,4\%$, degenerativ hujayralar va makrofaglar ulushi oshgani kuzatildi. Bu holatlar spermatogenezning susayganidan dalolat beradi.

Xulosa.Surunkali uglerod oksidi ta'siri moyaklarda gipoksik-distrofik jarayonlarni keltirib chiqarib, spermatogen epiteliy tuzilishini buzadi. Aniqlangan morfologik va morfometrik o'zgarishlar CO ning erkak reproduktiv tizimiga salbiy ta'sirini tasdiqlaydi hamda ekologik va kasbiy xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.